# MATNDAGI ZANJIRLI BOG‘LANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Utemuratova Gulzira Bazarbaevna**
O‘zR Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti.
utemuratovagulzira11@gmail.com

***Annotatsiya***
*Mazkur maqolada matn tarkibidagi gaplar o‘rtasidagi zanjirli sintaktik munosabatlarning xususiyatlari va ularning matn yaxlitligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda so‘z takrori, sinonimlar va olmoshlar kabi vositalarning matn qismlarini o‘zaro bog‘lashdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Badiiy matnlar materiallari asosida zanjirli bog‘lanishning turli ko‘rinishlari aniqlanib, ularning fikr rivojini ta’minlashdagi vazifasi ochib berilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *gap, matn, murakkab sintaktik butunlik, gaplararo, bog‘lanish, parallel bog‘lanish, zanjirli bog‘lanish.*

## KIRISH

Matn - og‘zaki va yozma shaklda ifodalanadigan birlik bo‘lib, u mazmuniy va tarkibiy jihatdan yaxlitligi, muayyan kommunikativ maqsadga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Matn shunchaki oddiy gaplar yig‘indisi emas, balki semantik va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘lanib, bir mavzu doirasida uyushgan gaplar tizimidir. Agar matnning tarkibiy qismlari o‘rtasida mazmuniy va shakliy bog‘liqlik bo‘lmasa, uni to‘liq matn deb bo‘lmaydi. Matndagi gaplarning o‘zaro bog‘lanishi matnning mazmun jihatidan yaxlit va izchil bo‘lishini ta’minlaydi, fikrning aniq va to‘liq ifodalanishiga xizmat qiladi. Shu sababli matn komponentlari orasidagi bog‘lanish tizimini o‘rganish matn lingvistikasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida MSB komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi masalasida turli fikrlar mavjudligini ko‘ramiz. Lekin tadqiqotchilar orasida G.Ya.Solganik tomonidan ilgari surilgan “zanjirli” va “parallel” bog‘lanish haqidagi qarash keng tarqalgan [4]. Uning fikrlarini A. I. Domashnev,
I. P. Shishkina va E. A. Goncharovadan iborat mualliflar guruhi ham to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi[3,208]. Z. A. Aldaeva va V. A. Yuzifovich bir xil fikrda bo‘lib, ular murakkab sintaktik butunlikdagi gaplar orasidagi aloqaning quyidagicha uch turini ajratib ko‘rsatadi: цепную связь, параллельную связь, присоединительную связь [1,50, 5,176-179].

Zanjirli (ketma-ket) bog‘lanish matndagi gaplarni biriktirishning keng tarqalgan usuli bo‘lib, matn asosan shu usul asosida tuziladi. Matnda fikrlar ketma-ket rivojlanib, har bir keyingi gap o‘zidan oldingi gapning mazmunini davom ettirsa va undan kelib chiqqanday bo‘lsa, bunday holda matndagi gaplarning o‘zaro zanjirsimon bog‘langanligi ma’lum bo‘ladi. Zanjirli bog‘lanish fikrning izchil rivojlanishini aks ettirgani uchun o‘z tabiatiga ko‘ra dinamik xarakterga ega bo‘ladi.

G.Ya.Solganik “Zanjirli bog‘lanish - mustaqil gaplarni gaplarni birlashtirish usullaridan biri bo‘lib, u fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks

ettiradi va gapning tugallangan sintaktik birlik sifatidagi tabiatiga mos keladi. Zanjirli bog‘lanish shu gaplarning struktur bog‘lanishidan iborat. Fikrning bir gapdan ikkinchisiga uzluksiz harakati va rivojlanishi odatda oldingi gapda ta’kidlangan so‘zning keyingi keyingi gapda takrorlanishi orqali amalga oshadi” - deb yozadi[4,58]. Bunda tadqiqotchi ta’kidlaganidek, “bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki jihatni farqlash kerak: birinchisi – o‘zaro bog‘lanayotgan gap bo‘laklari o‘rtasidagi turg‘un munosabatlarda (ega-ega, ega-to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi-to‘ldiruvchi) aks etadigan ichki, strukturaviy jihat, ikkinchisi – ushbu sintaktik munosabatlarning nutqda ifodalanishi, yuzaga chiqish vositalarini (leksik takror, sinonimik leksika, olmoshlar) tavsiflaydigan tashqi jihat” [4,58].

G.Ya. Solganikning fikrlariga qo‘shilgan holda, biz ham qoraqalpoq tilidagi murakkab sintaktik butunlikdagi gaplarning orasidagi zanjirli aloqalarni strukturaviy munosabatiga ko‘ra, ya’ni qo‘shni gaplarning qaysi a’zolari o‘ziga xos juftliklar (ega-ega, ega-to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi-to‘ldiruvchi) hosil qilib bog‘langanligi va ifodalanish usuli bo‘yicha, ya’ni bu munosabatlar qanday vositalar orqali ifodalanganligiga ko‘ra tasniflash mumkin deb hisoblaymiz.

Biz qoraqalpoq tilidagi badiiy matnlarni tahlil qilganimizda, MSB tarkibiy qismlari o‘rtasidagi sintaktik aloqa asosan “ega–ega”, “ega–to‘ldiruvchi”, “to‘ldiruvchi–to‘ldiruvchi” kabi turdagi strukturaviy munosabat asosida tuzilishini hamda bu sintaktik aloqa leksik takror, sinonim va olmoshlarlar orqali amalga oshirilishini aniqladik.

Masalan, **Annabay** kem-kem ósip, shawqımlı oyınlarǵa aralasa basladı. Biraz balalar júyrik atların shapqılap jayaw juwırıp júrgen **Annabaydı** qaqtırıp jıǵatuǵın boldı. Al, **Annabay** bolsa, dóp-dóńgelek qara kózlerine jas alıp, tulımshaǵı jelbirep, tayınshaqlı balalarǵa telmirip qarap turar edi. (I.Yusupov “Ǵarrı tuttaǵı gúz”, 33-bet). Keltirilgan misolda MSB tarkibidagi gaplarning sintaktik bog‘lanishi “ega-to‘ldiruvchi”, “to‘ldiruvchi-ega” strukturaviy munosabati asosida tuzilgan. Bu sintaktik bog‘lanish esa leksik takror orqali amalga oshirilgan.

Bir kesa shay ishimdey waqıt bolǵan joq, ózimizdiń avtobazanıń direktorı **Qarjawbay aǵa** entigip jetip keldi. **Ol** kirgennen keyin azımazdan meni shaqırttı. (M.Nızanov, Tańlamalı shıǵarmaları, VIII tom, 11-bet). Misolda birinchi gapdagi “Qarjawbay aǵa” so‘zining o‘rniga ikkinchi gapda “ol” olmoshi qo‘llanilib, “ega-ega” turidagi zanjirli bog‘lanish hosil qilingan.

Kishkene **Sergeydiń** dúnyaǵa shıqqanına bir yarım aydan asıp baratır. Házirshe **onıń** kimge uqsaǵanın ańlaw qıyın edi. Onıń ústine men de **oǵan** dıqqat salıp qaramayman. Tartınaman! (M.Nızanov, Tańlamalı shıǵarmaları, VIII tom, 100-bet). Bu misolda gaplar orasidagi sintaktik aloqa "aniqlovchi-aniqlovchi" "aniqlovchi-to‘ldiruvchi" tipidagi strukturaviy munosabat asosida o‘rnatilgan. Olmoshlar esa gaplar orasidagi aloqani ta’minlagan.

Adamlar kóp jaǵdayda ózine kerek emes zattı basqaǵa ótkeriw ushın ya satıw ushın **maqtaydı**. Eger bir dostıń seni kózińshe **maqtay baslasa**, óziǵdi abaylı tut. Satıp júrmesin! (T.Qayıpbergenov “Qaraqalpaqnama” roman-essesi, 115-bet). Yuqoridagi misolda gaplar o‘zaro takrorlar orqali sintaktik aloqa o‘rnatgan va “kesim-hol” tipidagi strukturaviy ko‘rinishga ega.

Quyida keltirilgan misollarda MSB komponentlari orasidagi bog‘lanishning strukturaviy turlari “kesim-to‘ldiruvchi” (kúygen eken - kúyiktiń dárejesin), “ega-to‘ldiruvchi” (qaytıs boldı – ólgenlerdi) shakliga ega.

Emlewxanada bir aydan kóbirek jattım. Oń ayaǵım juwan sannan baslap boyóserime deyin **kúygen eken. Kúyiktiń dárejesin** maǵan aytpadı. (M.Nızanov, Tańlamalı shıǵarmaları, VIII tom, 83-bet).

Doktordıń awzınan shıqqan sóz qáwipli keselliktiń atı ekenligi kóp ótpey málim boldı. Keyingi alıp kelingenlerdiń bir neshesi **qaytıs boldı**. **Ólgenlerdi** jerlew márdikarshılardıń jumısı edi. Jer tóleler janındaǵı soldatlar qoyımshılıǵında taza qábirler payda boldı. (K.Karimov “Aǵabiy” IV, 103-bet). Misollardan ko‘rinib turibdiki, zanjirli bog‘lanishning strukturaviy turlari orasida ega yoki to‘ldiruvchining takrorlanishi bilan bog‘liq turlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Balki, bu holat qoraqalpoq tili sintaksisida subyekt-obyekt munosabatlarining katta ahamiyatga ega ekanligi bo‘lsa kerak. Zanjirli bog‘lanishning ko‘pchilik strukturaviy turlari subyektlar orasidagi yoki subyekt bilan obyekt o‘rtasidagi munosabatlarni (ega-ega, ega-to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi-to‘ldiruvchi, to‘ldiruvchi-ega) ifodalashga asoslanadi. Aniqlovchining gapning boshqa bo‘laklari bilan juftliklarni hosil qilib, zanjirli bog‘lanishlarni shakllantirishi ega va to‘ldiruvchi bilan solishtirganda kamroq uchrashi aniqlandi. Ammo kesim bilan holning boshqa a’zolar bilan juftliklarni hosil qilib, zanjirli bog‘lanishlarni shakllantirishda aniqlovchiga qaraganda ancha kam ekanligi ma’lum bo‘ldi.

MSB komponentlarining zanjirli bog‘lanish prinsiplari bilan "gapning aktual bo‘linishi" nazariyasi bir-biriga mos keladi. Ma’lumki, aktual bo‘linish nazariyasi gapni u ifoda etayotgan fikr bilan, kontekst bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganadi. Gapda “boshlang‘ich nuqta” - fikrlar harakatining boshlanishi va “nutq yadrosi” - uning asosi, rivojlanishi ta’kidlangan [2,94]. Keyingi gapdagi oldingi gapning “nutq yadrosi” allaqachon boshlang‘ich nuqtaga aylanib, yangi “nutq yadrosini” talab qiladi. Masalan, Bir kúni Oksanadan **xat** keldi. **Xatta** den sawlıǵımdı soraptı, Biybisara menen jarasıwımdı jáne soraptı. Basqa hesh gáp joq. (M.Nızanov, Tańlamalı shıǵarmaları, VIII tom, 85-bet). Misolda birinchi gapdagi “yangi” ma’lumot ikkinchi gapda “ma’lum” ma’lumotga aylangan, ikkinchi gapdagi “yangi” ma’lumot esa uchinchi gap uchun "ma’lum" ma’lumot vazifasini bajarib ketma-ket bog‘lanadi. Shuning uchun, gaplar bir-biri bilan zanjir kabi bog‘lanib, keyingi gap oldingisini davom ettiradi va shu tariqa fikr izchil rivojlanadi. Natijada, gaplar o‘zaro juda mustahkam bog‘lanadi va alohida ajratib olinganda mustaqil qo‘llanish xususiyatini yo‘qotadi. Chunki, ularda oldingi gaplar bilan bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi leksik-grammatik vositalar bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zanjirli aloqada bir jumlada ifodalangan fikr keyingi jumlada davom ettirilib, umumiy mantiqiy zanjirga bog‘lanadi. Zanjirli bog‘lanish yordamida matnda fikr izchil rivojlanib, har bir keyingi gap oldingi gap bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Bunday bog‘lanish so‘z takrori, sinonimlar, olmoshlar va boshqa til vositalari orqali yuzaga keladi.

## ADABIYOTLAR

1.Алдаева З.А. Способы и средства связи компонентов сложного синтаксического целого в кумыкском языке: дис... канд. филол. наук. Махачкала, 2008. - 163 с.

2. Грамматика русского языка. Т.2. Синтаксис. 4.1.Москва, 1960. С.94.

3. Домашнев А.И., Шишкина И.П., Гончарова Е.А. Интерпретация художественного текста: Немецкий язык: Учебное пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2103 “Иностранный язык”. 2-ое изд., дораб. - М.: Просвещение, 1989. - 208 с.

4.Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. -М.:Высшая школа, 1973.-216

5. Юзифович В. А. О синтаксических средствах связи в очерке Е. Богата «Семейная реликвия» // Медиалингвистика. 2014. № 3. С. 176–179.